

COHESION AND COHERENCE AS THE MAIN CATEGORIES OF TEXTUAL CONNECTEDNESS

Tangriyeva Lobar Nasriddinovna

O‘zbekiston Milliy universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrasida erkin izlanuvchisi.

E-mail: lobar.tangriyeva@list.ru

Abstract: This article is devoted to analyze the definition of «cohesion» and «coherence» in modern linguistics and describe their role in the text analysis, as well as correlate these terms with the notion of connectedness. We point out that the interpretation of these terms in various linguistic theories differs. However, having examined the research in the field of text coherence, we conclude that cohesion and coherence are the main categories of textual connectedness.

Keywords: linguistics, text, cohesion, coherence, connectedness, category.

Аннотация: В данной статье рассматривается определение терминов «когезия» и «когерентность» в современной лингвистике, описывается их роль при анализе текста, а также соотносятся данные понятия с понятием связности. Отмечается, что понимание этих терминов в различных лингвистических концепциях отличается, тем не менее, исследования в области связности текста, свидетельствует о том, что когезия и когерентность являются основные категории связности текста.

Ключевые слова: лингвистика, текст, когезия, когерентность, связность, категория.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda “kogeziya” va “kogerentlik” atamalarining tavsifi, ularning matn tahlilida tutgan o‘rni, shuningdek ushbu tushunchalarning ravonlik tushunchasi bilan o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi. Qayd etish kerakki, mazkur atamalar tilshunoslikka oid turli qarashlarda turlicha ifodalansada, matn tahlili borasida olib borilgan tadqiqotlar kogeziya va kogerentlik matn ravonligining asosiy kategoriyalari ekanligidan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, matn, kogeziya, kogerentlik, ravonlik (bog‘langanlik), kategoriya.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘quvchilar tomonidan yozilgan ayrim yozma ishlarda mazmunan bog‘liqlik (kogerentlik) yo‘qligidan nolib gapiradilar. Yozma ishlar baholanganda o‘qituvchi tomonidan “Matn mazmunan bog‘lanmagan“ deb yozilgan jumlagacha ko‘p ko‘zimiz tushadi. Lekin bu jumla o‘quvchiga nimani anglatadi? Matnning mazmunan bog‘liqligi deganda nimani tushunish kerak? O‘quvchilarda tug‘iladigan shu kabi savollarga javob berish uchun o‘qituvchilarning o‘zlari yetarli ma‘lumot va manbaga egalarmi?

Yuqoridagi savollarga javob berish uchun tilshunoslikda qo‘llaniladigan “kogeziya” va “kogerentlik” atamalari, ularning tavsifi, bir-biridan farqi va o‘zaro bog‘liqliligi kabi jihatlar haqida to‘xtalib o‘tsak.

Aslida “kogeziya” va “kogerentlik” atamalari yangi tushunchalar emas. Matn tilshunosligida chuqur ma‘noni va muallif fikrini talqin qilishda qo‘llaniladigan mazkur atamalarga g‘arb tilshunoslarining tadqiqotlarida juda keng o‘rin berilgan. Rus tilshunosligiga

g'arb tadqiqotchilarining ishlari orqali kirib kelgan ushbu tushunchalar rus tilshunoslari tomonidan yetarlicha tadqiq qilinmagan. Buning asosiy sabablaridan biri kogeziya va kogerentlik tushunchalarining har doim ham bir-biridan aniq farqlanmasligidadir. Misol uchun, olimlar L.Y.Grinevskaya, O.V.Zimina va V.B. Kiselevlar tomonidan yozilgan «Текст как доминирующая единица перевода» nomli maqolada mazkur ikki atama sinonimlar sifatida ishlatilgan: «О понятии когерентности (когезии) текста пишут многие лингвисты <...>. Понятие когезии (когерентности) имеет широкое трактование и представляет собой соотнесенность составляющих текст компонентов».

Ushbu atamalarning g'arb tilshunosligiga kirib kelishida olimlar M.A.K.Xallideya va R.Xassanning hissasi katta. Ular birinchilardan bo'lib o'zlarining «Когезия в английском языке» («Cohesion in English») nomli kitobida kogeziya tushunchasiga ta'rif bergan. Yana bir tadqiqotchi Teun Van Dijk esa o'zining matnga oid tadqiqotida biror matnning kogerentligi undagi mikrostruktura (gaplarning darajasi) va makrostruktura (gapdan-gapga o'sib boradigan va umumiylik hosil qiladigan mavzu) o'rtasida hosil bo'ladigan aloqalarda o'z aksini topadi, degan fikrni ilgari surgan. Bu vaziyatda mikrostrukturada kogeziya, makrostrukturada esa kogerentlik namoyon bo'ladi, deya ta'kidlaydi u. Olimlar V.Dressler va R.Bograndlarning fikricha, kogeziya va kogerentlik tushunchalarini bir-biridan farqlash matnning ichki va tashqi tuzilishini alohida-alohida ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, kogeziya matnning ichki – leksik-grammatik bog'liqligini ta'minlasa, kogerentlik shu bog'liqlik asosida muallif fikrini o'quvchiga tushunarli qilib yetkazishga xizmat qiladi. Ma'lum bir matn kogerentlik shartlariga to'la mos kelishi uchun u quyidagi 4 ta qoidaga bo'ysunishi kerak: ma'lumotlar izchilligi, matndagi fikrlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, leksik maydon va o'zaro moslik.

Ma'lumotlar izchilligi qoidasiga matn to'laligicha mos kelishi kerak. Undagi ma'lumotlar gapdan-gapga yangilanib, kommunikativ qiziqish uyg'otishi juda muhim. Agar matnda bir xil ma'lumot har xil ko'rinishda takrorlanaversa, bu holat o'quvchining o'qilayotgan matnga bo'lgan qiziqishi asta-sekin pasayishiga va oxirida butunlay yo'qolishiga olib keladi. Matnga yangi ma'lumot kiritishda o'sha ma'lumotni ifoda etayotgan gap ikki qismdan iborat bo'lishi kerak: mavzu va asos qilib olingan ma'lumot. Masalan:

Bobur (mavzu) yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimonidir (asos qilib olingan ma'lumot). Ayni paytda u (kishilik olmoshi yordamida takrorlangan mavzu) adabiyotimizning Navoiydan keyingi zabardast vakili hisoblanadi (asos qilib olingan yangi ma'lumot).

Matndagi fikrlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik qoidasiga ko'ra, bir fikrdan ikkinchi fikrga o'tishda aniqlik bo'lishi kerak[9]. Bu mantiqiy bog'liqlik matnda gap ketayotgan bir mavzudan boshqa bir mavzuga o'tib ketishga to'sqinlik qiladi. Odatda mazkur bog'liqlik paragraflar o'rtasida hosil bo'ladi, ya'ni matndagi birinchi paragraf yakunidagi ma'lumotlar ikkinchi paragraf boshidagi ma'lumotlar haqida to'xtaladi. Eng muhimi, har bir paragrafda yangi fikr yoki asosiy fikrga qo'shimcha ma'lumotlar keltirilishi shart. Masalan:

Ikki yoshida biror o'yinchoqni istagani uchun sizga baqirib-chaqirgan, o'zini yerga otgan, onasiga musht tushirgan yoki shapaloq tortib yuborgan, xarxasha qilib, yig'lab aqldan ozayotgan bolani ko'rganimizda xayolimizga kelgan birinchi fikr shunday bo'ladi: “ Ey voh! Bu bolaga gapimni hozir o'tkaza olamasam, katta bo'lganidan keyin meni qanday kuyga solar ekan, buni qanday qilib eplayman?”

Mana shu qarashda ikkita yanglish idrok bor. Birinchisi, farzandimizni “eplash” kerakligini o‘ylayotganimiz. Mana shu fikr ongni jang maydoniga aylantiradi. Mana shu yo‘l bilan aslida yuzaga kelishi niyat qilingan “ezgulik binosi” hali qurilmasdan buziladi.

“Ezgulik binosi” degan tushuncha, farzandimizga xavfsizlik hissini berishdan boshqa narsa emas aslida.

Yuqoridagi matnni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, birinchi paragrafda bolaning injiqliklari (mavzu) haqida gap ketadi va paragraf so‘roq gap bilan yakunlanadi. Ikkinchi paragrafda esa mazkur so‘roq gapga javob izlangan bo‘lsa, uchinchi paragrafda ikkinchi paragraf yakunidagi “Ezgulik binosi” mavzusi davom ettiriladi.

Ko‘rib turganimizdek, yuqoridagi matn paragraflari bir-biri bilan mazmunan va mantiqan uzviy bog‘langan. Bu esa mazkur matnda kogerentlik borligidan darak beradi.

Kogerentlik shartlarining uchinchi qoidasiga ko‘ra matn leksik maydonga ega bo‘lishi kerak. Bu atama matn hosil bo‘lishida ishtirok etgan so‘zlar yig‘indisini anglatadi. Mazkur so‘zlar yig‘indisi yozilayotgan matn turiga va unda talqin qilinayotgan mavzuga mos bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, badiiy matnda adabiy uslubga oid jilvador so‘zlar, ilmiy matnda o‘ziga xos termin va tushunchalarni qo‘llash talab etiladi. Matnni yozishda ushbu qoidaga amal qilmaslik kogerentlikning buzilishi va (yoki) uning tushunarsiz bo‘lishiga olib keladi.

Yozilayotgan har bir matn ikki turdagi leksik maydonga ega bo‘lishi kerak. Bular: lokal (muayyan) leksik maydon va umumiy leksik maydon. Masalan:

Bir oilaning xo‘jayini bo‘lish degan tushuncha yo‘q, aslida. Ammo xonadon qonun-qoidalarini belgilaydigan, mas’uliyatni doimiy ravishda o‘z bo‘yniga oladigan va farzandlarini nazoratida ushlab turuvchi shaxslar, albatta, bu ota-onalardir. Bolalar esa har daqiqada buni his etib turadilar. Bugungi kunda farzandlarimiz “markaziy hayot”ga o‘tish davrlarida biz unutayotgan, e’tibordan chetda qoldirayotgan, nazar qilmayotgan qism ham mana shudir...

Ko‘p xonadonlarda bu tizim izdan chiqqan. Bolajonlar o‘ta erka va o‘z so‘zlarini o‘tkazishga urinadilar, ya’ni aytganlarini ota-onalariga majburan qildirishga urinadilar. Bu vaziyatda onalar bolaning ruhiyatiga zarar yetkazmasdan qanday tarbiya berishlari yoki yo‘llarida davom etishlari mumkin?

Yuqoridagi matnda berilgan ikki paragrafni tahlil qiladigan bo‘lsak, umumiy leksik maydonga oid so‘zlar sifatida oila, ota-onalar, bolalar, shaxslar kabilarni, lokal leksik maydonga oid so‘zlar sifatida esa markaziy hayot, erka, ruhiyat, tarbiya kabi so‘zlarni olishimiz mumkin.

Kogerentlik shartlariga mos kelishning so‘nggi qoidasiga ko‘ra, matndagi gaplar va paragraflar o‘zaro mos kelishi kerak. Bu moslik fe‘l zamonlari va kishilik olmoshlarini to‘g‘ri qo‘llash bilan bir qatorda mavzuni to‘g‘ri qo‘llash bilan ham xarakterlanadi. Misol uchun:

Bir eslab ko‘ring-a, bolaligimizda otamizning yonida oyoqlarimizni ustma-ust chalkashtirib ham o‘tira olmasdik. Agar shunday qilganimizda ulardan aniq kaltak yerdik.

Yuqoridagi parchada ikkita gap o‘tgan zamonda va birinchi shaxs ko‘plikda berilgan. Agar ikkinchi gapdagi fe‘l zamonini hozirgi zamonga va shaxsini birinchi shaxs birlikka o‘zgartirsak, parcha mana bunday ko‘rinishga keladi:

Bir eslab ko‘ring-a, bolaligimizda otamizning yonida oyoqlarimizni ustma-ust chalkashtirib ham o‘tira olmasdik. Agar shunday **qilganimda** ulardan aniq **kaltak yedim**.

Hosil bo‘lgan parchadan ko‘rishimiz mumkinki, yuqorida kiritilgan o‘zgarishlar matndagi kogerentlikning buzilishiga sabab bo‘ldi. Xuddi shu holatni mavzu o‘zgarishida ham kuzatish mumkin, ya’ni matndagi birinchi paragrafda tarbiya haqida gapirib turib, ikkinchi paragrafda sport mavzusiga o‘tib ketish mutlaqo noto‘g‘ri bo‘ladi.

Yuqorida biz kogeziya haqida gapira turib, bu atama matnning leksik-grammatik bog'liqligini ta'minlashga xizmat qilishi haqida aytib o'tgan edik. U matnning ichki bog'liqligini anglatib, uning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kogeziya matnda nima haqida gap ketayotganiga emas, unda semantik yaxlitlik qanday vujudga kelganiga javob beradi. Kogeziya (yoki ravonlik kategoriyasi) matnni xarakterlovchi asosiy aspekt sifatida zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilmoqda. Rus tilshunoslaridan I.R.Galperinning ko'plab tadqiqotlari kogeziya tushunchasiga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotchi uning matn yasovchi roliga alohida urg'u beradi va bir necha xil turga ajratadi.

Yuqorida keltirilgan fikr v mulohazalarga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, matnning yaxlit bir hosila sifatida vujudga kelishida, uning ravonligini ta'minlashda asosiy kategoriyalar sifatida kogeziya va kogerentlik yuzaga chiqadi. Bu ikki kategoriya bir-birini to'ldirgan holda grammatik, leksik va stilistik qoidalarga asoslangan, mantiqan bog'langan yaxlit bir ma'lumotni matn ko'rinishida o'quvchiga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М.: Наука, 1981.
2. Гриневская Л.Е., Зимина О.В., Киселева В.Б. Текст как доминирующая единица перевода // Лингводидактические аспекты перевода в процессе подготовки переводчиков: Материалы международного научно-практического семинара 15 ноября 2005 года. Иркутск, 2006.
3. Литневская Е.И., Литневская О.А. К определению текстообразующих признаков когезии и когерентности // Вестник Московского университета. Серия 9: Филология. 2015. №6
4. Xadicha K.T. Baqirmaydigan onalar. Yangi asr avlodi, 2022.
5. Alkhatib M. La cohérence et la cohésion textuelles: problème linguistique ou pédagogique ? // Didáctica. Lengua y literatura. 2012, vol.24.
6. De Beaugrande R.-A., Dressler W. Introduction to Text Linguistics. London, 1981.
7. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. London, 1976.
8. Van Dijk, Teun A. Le texte // dans Dictionnaire des littératures de langue française, tome III, Bordas, 1984.
9. Xadicha K.T. Baqirmaydigan onalar. Yangi asr avlodi, 2022.
10. Sodikovna, Kurbonova Gulsara. "Cultural aspects of translation in the study of." E-Conference Globe. 2021.
11. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
12. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
13. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
14. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.

15. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.
16. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
17. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE